ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-iyul oyida ANDIJON VILOYATIDA xizmatlar sohasining rivojlanishi



Andijon – 2021 y.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta’minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste’mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo‘sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi
62,2 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi
79,9 %

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
2 582,0 ming so‘m

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati
122,4 %

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
8 266,7 mlrd. so‘m

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati
124,8 %



2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 266,7** mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **124,8 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2021- yil yanvar-iyul oyida)



2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari *(2021- yil yanvar-iyul oyida)*	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 266,7	124,8
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	358,1	111,0
Moliyaviy xizmatlar	2 134,7	156,2
Transport xizmatlari	1 607,2	113,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 561,8	112,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	123,7	104,9
Savdo xizmatlari	2 453,8	116,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	223,9	125,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	322,9	125,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	122,6	108,8
Ijara xizmatlari	181,8	131,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	165,2	121,5
Shaxsiy xizmatlar	354,0	119,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	56,6	102,4
Boshqa xizmatlar	162,2	112,5

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Savdo xizmatlari	29,7 %
Moliyaviy xizmatlar	25,8 %
Transport xizmatlari	19,4 %
Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari	4,3 %
Shaxsiy xizmatlari	4,3%
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,9%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2.7%

Nisbatan past ko'rsatkich

Ijara xizmatlari	2.2%
Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar	2,0%
Boshqa xizmatlar	2,0%
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1.5%
Yashash va ovqatlanish xizmatlar	1,5 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlari	0,7 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-iyul oyida ularning ulushi **29,7**% ni tashkil etdi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlari hajmida eng past o‘sish qayd etilib, ularning ulushi atigi **0,7** % ga yetgan.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oyida savdo xizmatlari umumiy hajmda **31,1** % ni tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham eng kichik bo‘lgan – **0,8** %.

2021- yil yanvar-iyul oyida yuqori o‘sish savdo hizmatlari (**29,7** %), moliyaviy sohasida (**25,8** %), transport hizmatlari (**19,4** %), qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida Moliyaviy xizmatlarda yuqori o‘sish sur'atlari qayd etildi (141,6 %).

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyul oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **29,7** % ni tashkil etdi, bu esa **2 453,8** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oyida ularning hajmi **1901,9** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmining **31,1** % iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2020- y. yanvar-iyul

Xizmatlar hajmi 1901,9 mlrd. so'm

O'sish sur'ati 97,3%

Ulushi 31,1 %

2021 y. yanvar-iyul

Xizmatlar hajmi 2 453,8 mlrd. so'm

O'sish sur'ati 116,3 %

Ulushi 29,7 %

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

2021- yil yanvar-iyul oyida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **85,0** % ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi

(2021- yil yanvar –iyul oyida)

Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar

(2021- yil yanvar-iyul oyida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi **2 134,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oyida ularning hajmi **1342,6** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilnlng o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **25,8** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oyida ularning ulushi **22,0** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **792,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 56,2 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyun oyida ularning o'sish sur'ati 41,6 % ga yetgan.

2021- yil yanvar-iyul ***Dastlabki ma'lumotlar***

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **58,9** % ni tashkil etdi.

2021-yilning iyul oyi yakuniga ko'ra sug'urta xizmatlarining ulushi **3,1** % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2021- yil yanvar-iyul oyida)

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yil yanvar-iyul oyida)

2020- y. yanvar-iyul		2021 y. yanvar-iyul
317,7 mlrd. so'm	Xizmatlar hajmi	358,1 mlrd. so'm
112,8 %	O'sish sur'ati	111,0 %
5,2 %	Jami hajmdagi ulushi	4,3 %

Hajmning o'sishi

40,3 mlrd. so'mga

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **96,8** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2021- y. yanvar-iyul



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axbo-rotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar-iyul	Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi	2021- y. yanvar-iyul
239,1 mlrd. so'm		322,9 mlrd. so'm
115,7 %	O'sish sur'atlari, % da	125,0%

2021- yil yanvar-iyun oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **322,9** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **3,9** % ni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oyida xizmatlar hajmi 239,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan o'sish 115,7 % darajasi qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

	2020- y. yanvar-iyul	2021- y. yanvar-iyul
Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm	104,4	123,7
O'sish sur'ati, % da	81,9	104,9

2020- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **19,2** mlrd. so'mga ortdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-iyul oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,6** % bilan ustunlik qildi.

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y. yanvar-iyul		2021- y. yanvar-iyul
98,0 mlrd. so'm	Xizmatlar hajmi	122,6 mlrd. so'm
73,4 %	O'sish sur'ati	108,8 %
1,6 %	Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi	1,5 %

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da

(2021- yil yanvar-iyul oyida)



2021- yil yanvar-iyun oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidadagi eng katta ulush Andijon shahriga tegishli – **34,5** % (2020- yilda **33,7**%). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'ston tumanida **2,4** % (2020- yilda **2,4** %) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar (2021 yil yanvar-iyul)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021 y.	2020 y.
Andijon viloyati	8 266,7	124,8	107,1
Shahar:			
Andijon sh	2 876,2	128,9	107,3
Xonaobod sh	279,4	119,0	100,4
Tumanlar:			
Oltinko'l	375,6	122,2	101,8
Andijon	477,1	121,9	102,2
Baliqchi	381,1	122,8	100,7
Bo'ston	192,2	118,6	100,1
Buloqboshi	284,4	121,8	100,3
Jalaquduq	308,1	120,0	101,1
Izboskan	399,6	122,1	102,0
Ulug'nor	196,8	118,5	100,3
Qo'rg'ontepa	448,3	126,9	100,8
Asaka	515,9	127,6	102,4
Marhamat	324,8	119,9	101,9
Shahrixon	501,1	127,0	102,3
Paxtaobod	432,8	120,7	100,9
Xo'jaobod	273,3	122,7	100,7

**) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 582,0 ming so'm

Hajmning o'sishi

635,8 ming so'mga

122,4 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyul oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 582,0** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan o'sish sur'ati **122,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020-yilning yanvar-iyul oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 946,2** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni: **24 944 birlik**

2020- yilning mos davriga nisbatan ularning sonini o'sishi: **3 326 birlikga**

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari: **115,4 %**

Ularning umumiy sonidagi ulushi: **62,2 %**

2021- yil yanvar-iyul *Dastlabki ma'lumotlar*

2021- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 62,2 %, sanoat 22,9 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 6,6 % ga yetdi. Qurilish sohasi 8,3 % ga to'g'ri keladi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning **1**- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **62,1** %, sanoat **22,8** %, qurilish **8,6** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **6,5** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyun *Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlari tomoni-dan ko'rsatilgan bozor xizmat-larining ulushi **10,7** % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tash-kilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **79,9** % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.
Tel.: 74-228-30-83